

USTRUSHONANING ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATI

O‘rshova Nazira Jomboy qizi

*O‘zbekiston Milliy Universiteti, Tarix fakulteti, Arxeologiya
mutaxassisligi, 1-bosqich magistrant*

ANNOTATSIYA: *Mazkur tadqiqotimda Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar davridagi tarixiy rivoji va madaniy muhitini arxeologik manbalar asosida yoritishga bag‘ishlangan. Asosan Jizzax vohasi hududida XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijalari tahlil qilinadi. Qulpisar rabodi, Dunyotepa, Qaliyatepa, Kanpirak devori, Qing‘irtepa va boshqa yodgorliklar misolida Ustrushonaning mudofaa tizimi, shaharsozlik madaniyati hamda iqtisodiy hayotining shakllanish bosqichlari ochib beriladi. Mening shaxsiy fikrimcha, aynan Jizzax vohasida aniqlangan arxeologik yodgorliklar Ustrushonaning ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo‘lganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Ustrushona, ilk o‘rta asrlar, Jizzax vohasi, arxeologik ekspeditsiyalar, shahar madaniyati, mudofaa inshootlari, Kanpirak devori, sug‘orma dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvadorlar, moddiy madaniyat.*

KIRISH

Ustrushona ilk o‘rta asrlar davrida Markaziy Osiyoning murakkab tarixiy-madaniy makonida o‘ziga xos o‘rin egallagan hududlardan biri sanaladi. Ayniqsa, uning g‘arbiy qismi bo‘lgan Jizzax vohasi tabiiy sharoiti, suv manbalariga yaqinligi hamda ko‘chmanchi va o‘troq aholi tutashgan hududda joylashgani bois tarixiy jarayonlar kesishgan maydon sifatida shakllangan. Shu sababli bu hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar faqat alohida yodgorliklar tarixini emas, balki Ustrushonaning ilk o‘rta asrlardagi umumiy taraqqiyot modelini anglash imkonini beradi.

1950-yillardan boshlab Jizzax vohasida olib borilgan arxeologik qidiruv va qazuv ishlari natijasida aniqlangan Qulpisar rabodi, Dunyotepa, Qaliyatepa, Kanpirak devori, Qing‘irtepa va boshqa yodgorliklar Ustrushonada shahar hayoti, mudofaa tizimi hamda xo‘jalik faoliyati barqaror rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu yodgorliklar nafaqat moddiy madaniyat darajasini, balki aholi turmush tarzining murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lganini ham ochib beradi. Ayniqsa, Kanpirak devori singari yirik mudofaa inshootlari vohaning tashqi xavflarga nisbatan puxta himoyalanganini, shu bilan birga sug‘orma dehqonchilikka asoslangan yerlarning saqlanishiga xizmat qilganini anglatadi. Mening shaxsiy mulohazam shuki, darhaqiqat, Jizzax vohasi yodgorliklarini o‘rganish orqali Ustrushonaning ilk o‘rta

asrlardagi tarixini faqat siyosiy voqealar doirasida emas, balki kundalik hayot, xo'jalik va madaniyat uyg'unligi orqali talqin qilish mumkin. So'nggi o'tgan yillarda arxeologik materiallar ustida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu hudud o'troq dehqonchilik madaniyati bilan ko'chmanchi chorvador an'analari qorishgan noyob tarixiy muhit bo'lgan.

Ustrushona ilk o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyodagi yirik tarixiy-madaniy hududlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning tarkibida Jizzax vohasi alohida strategik va iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Vohada tog', cho'l va sug'orma dehqonchilik hududlarining tutashuvi qadimdan turli xo'jalik shakllarining parallel rivojlanishiga imkon yaratgan. Aynan shu omil Ustrushonada o'troq dehqon aholi bilan ko'chmanchi chorvador qabilalar o'rtasidagi murakkab, ammo uzviy munosabatlarni shakllantirgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Jizzax vohasi ilk o'rta asrlarda nafaqat mahalliy aholi yashaydigan hudud, balki harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar kesishgan muhim makon bo'lgan. Qaliyatepa, Qulpisar, Dunyotepa kabi yodgorliklar hududda shahar hayoti uzluksiz davom etganini tasdiqlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Jizzax vohasida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar Ustrushonaning ilk o'rta asrlar tarixini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi. 1951-yilda Tuzkon va uning atrof hududlarida aniqlangan neolit va bronza davriga oid topilmalar bu hududda qadimgi madaniy an'analarni uzluksiz davom etganini ko'rsatadi. Bu holat ilk o'rta asr shahar madaniyatining tasodifan paydo bo'lmaganini, balki uzoq tarixiy jarayon mahsuli ekanini anglatadi. 1956-yilda o'rganilgan Qulpisar rabodi va Dunyotepa qal'asi ilk o'rta asrlarda vohaning harbiy-strategik ahamiyatini ochib beradi. Qulpisar rabodining ko'chmanchi qabilalar hujumlariga qarshi mo'ljallangan mudofaa markazi sifatida barpo etilgani Ustrushonaning tashqi xavflarga tayyor bo'lganini ko'rsatadi. Dunyotepa hududida aniqlangan dolmen va marosim izlari esa diniy e'tiqodlar va qadimiy urf-odatlarining uzoq vaqt saqlanib qolganidan dalolat beradi. Jizzax vohasida aniqlangan eng muhim inshootlardan biri — Kanpirak devori Ustrushonaning ilk o'rta asrlardagi mudofaa tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Sangzor vodiysi bo'ylab yoysimon shaklda qurilgan ushbu devor vohani ko'chmanchi qabilalarning bosqinlaridan himoyalash bilan birga, sug'orma dehqonchilik hududlari bilan cho'l zonasi o'rtasidagi chegarani belgilab bergan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, devor V–VIII asrlarda faoliyat ko'rsatgan va uning ichki hududida qariyb 40 ga yaqin ilk o'rta asr turar joy makonlari mavjud bo'lgan. Bu esa Kanpirak devorining faqat harbiy emas, balki iqtisodiy va ekologik vazifalarni ham bajarganini ko'rsatadi. Mening shaxsiy mulohazam shuki, darhaqiqat, bunday yirik inshootlar Ustrushonada markazlashgan boshqaruv va jamoaviy mehnat tizimi mavjud bo'lganini anglatadi. Qaliyatepa, Qing'irtepa va Almantepa yodgorliklarida olib

borilgan qazuv ishlari Jizzax vohasida ilk o'rta asrlarda rivojlangan shahar madaniyati mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Qing'irtepadan topilgan tangalar xazinasi, xususan VIII asrga oid turk hukmdorlari nomi bilan zarb qilingan tangalar vohaning keng savdo aloqalariga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, metallurgiya va hunarmandchilik izlari, tog' hududlaridagi temir rudasi eritish o'choqlari Ustrushonada ishlab chiqarish madaniyati yuqori darajada rivojlanganini anglatadi. Shaxsiy tajribamdan kelib chiqib, moddiy madaniyat namunalarini laboratoriya sharoitida tahlil qilish jarayonida, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkabligi va mahalliy an'analar bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'lishini kuzatdim. Shaxsiy tajribamga tayanib aytish mumkinki, Jizzax vohasi ilk o'rta asrlarda mustaqil iqtisodiy makon sifatida shakllangan. Dunyotepa va Shaxidtepa atrofiga aniqlangan marosim izlari, dolmen va mozorqo'rg'onlar Ustrushonada diniy e'tiqodlar va marosimlar muhim o'rin egallaganini ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan Shaxidtepa majmuasining astronomik va diniy markaz sifatida talqin qilinishi bu hududda ilmiy va mafkuraviy qarashlar shakllanganidan dalolat beradi.

So'nggi o'tgan yillarda ushbu yodgorliklarni qayta talqin qilishga bo'lgan qiziqish Ustrushonaning madaniy hayoti yanada murakkab va ko'p qirrali bo'lganini ko'rsatmoqda. Diniy marosimlar, ajdodlar ruhi bilan bog'liq e'tiqodlar va keyinchalik islomiy unsurlar uyg'unlashuvi hudud madaniyatining uzviyligini ta'minlagan. Ustrushona Jizzax vohasi orqali nafaqat mintaqaviy savdo yo'llari bilan bog'langan, balki ilmiy jihatdan ham o'rta asrlarda rivojlangan madaniyat markazi bo'lganini isbotlaydi. Shu bois, Ustrushona hududida arxeologik qazuv-tadqiqotlarni davom ettirish, qadimiy shahar qatlamlarini aniqlash va hudud tarixini yanada chuqurroq o'rganish zarurati mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Anboyev. *Drevnosti golodnoy stepi*. Y.M.M.T. 4-nashr. T., 1963. 55-str.
2. Ya.G'. G'ulomov. *Kladbishche Kulpisar*. U.M.M.T. 2-nashr. T., 1961, 92–96 str.
3. M.Aminjonova. *Arxiologicheskaya razvedka v Zaaminskom rayone*. U.M.M.T. 8-nashr. T., "Fan", 1969, 137–142 str.
4. N.B. Nemseva, G.Ya. Drevyanskaya. *Pamyatniki Zaamina i yego okrugi (k arxeologicheskoy karte severnoy Ustrushany)*. U.U.M.T. 20-nashr. T., "Fan", 1986, 221–229 str.
5. E.V. Rtveladze. *Arxeologiya Ustrushoniy*. T., "Fan", 1975.
6. L.M. Sverchkov. *Qadimgi Jizzax va uning arxeologik topilmalari*. Samarqand, 1988.
7. Sh.S. Toshxo'jayev. *Jizzax dashtida arxeologik qazuv ishlari*. O'zR FA Arxeologiya instituti, 1973.